



Maxammatov Otabek Saydaaliyevich,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: maxammatov-o@mail.ru

GLOBAL IJTIMOY-MADANIY JARAYONLAR VA MA'NAVY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIK

Annotatsiya. Maqolada global ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ijobiylik xususiyatlarini inkor etmagan holda uning bir-birini inkor etib turuvchi ayrim omillari, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi vositalari biriga aylanib borayotgani, globallashuv markazlari sifatida qaraladigan hududlarning bir joyga jamlanishining ijtimoiy xavfsizligimizga bo'lgan ta'siri hamda madaniyatlar to'qnashuviga baho berilgan.

Аннотация. В статье, не отрицая положительных черт глобальных социокультурных процессов, некоторых их взаимоисключающих факторов, того факта, что социально-экономические интересы становятся одной из главных движущих сил глобализации, влияние концентрации регионов рассматривается как центры глобализации на наше социальное обеспечение, и оценивается столкновение культур.

Annotation. In the article, without denying the positive features of global socio-cultural processes, some of its mutually exclusive factors, the fact that socio-economic interests are becoming one of the main driving forces of globalization, the impact of the concentration of regions considered as centers of globalization on our social security, and clash of cultures is assessed.

Tayanch so'zlar: postindustrial jamiyat, axborotlashgan jamiyat, intellektual jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv, globallashuv markazlari, ijtimoiy xavfsizlik, madaniyatlar to'qnashuvi.

Ключевые слова: постиндустриальное общество, информационное общество, интеллектуальное общество, социально-экономическая глобализация, центры глобализации, социальная безопасность, столкновение культур.

Keywords: post-industrial society, information society, intellectual society, socio-economic globalization, centers of globalization, social security, clash of cultures.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida madaniyat o'ziga xos shakl va mazmunda rivojlanib boraveradi. Shu boisdan ham ijtimoiy taraqqiyot natijasida vujudga kelayotgan madaniy o'zgarishlar jamiyatning barcha jabhasini qayta ko'rib chiqishga, axloqiy-estetik qadriyatlar, ijtimoiy-huquqiy me'yor va insonlar xulq-atvoriga doir tizimlarni yangilashga olib keladi.

Asosiy qism. Hozirgi zamon jamiyatida ijtimoiy va madaniy jarayonlar, shubhasiz, rivojlanishni o'zida aks ettiradi. XX asrning 50-yillaridan boshlab kishilik jamiyatini rivojlantirishning asosiy manbalari sifatida axborot, yoshlarni bilimlarga yo'naltirish, real hayotni virtuallashtirish va madaniy hayotning globallashuvi jamiyatning barcha sohalarida (siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy) yangilanishlarga olib keldi. Hozirgi paytda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish elementiga axborot texnologiyalarining kiritilishi, dunyo kommunikatsiya tizimining rivojlanishi, yuqori texnologik mahsulotlar salmog'ining o'sishi, TMK (Transmilliy korporatsiya)larning salmog'i jahon savdo iqtisodiyotida belgilovchi rolni bajarishi ijtimoiy-madaniy jarayonlarning globallashuviga olib keldi. Madaniyatlararo geosiyosiy masalalarning dolzarblashuvi, mamlakat ichki va tashqi siyosatida yangi ustuvor yo'nalishlarni yaratish, madaniyatli sanoatning globallashuvi "postindustrial jamiyat", "axborotlashgan jamiyat", "intellektual jamiyat" singari yangi tushunchalarni shakllantirdi va zamonaviy sivilizatsiyaning postindustrial bosqichiga o'tishi tezlashdi.

XXI asrning boshlarida globallashuv inson hayotining ikki sohasida: iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohalarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lmoqda. Binobarin, globallashuvning mamlakatlar, xalqlar va kichik mahalliy etnik guruhlariga, insoniyat mavjudligiga ta'sir etuvchi omillarini aniqlashni ushbu jarayonning ikki tarkibiy qismini tahlil qilmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham tadqiqot mavzuyimizdan kelib chiqib, global ijtimoiy-madaniy jarayonlar tushunchasining falsafiy mazmun-mohiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratmoqchimiz. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Keyingi yillarda Yer yuzida keskin geosiyosiy o'zgarishlar ro'y berdi, xalqaro miqyosida xavfsizlik va barqarorlik tizimi izdan chiqmoqda. Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda".

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlar tushunchasini izohlashda fan fenomeni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, birinchidan, ilmiy-

Madaniyatlararo geosiyosiy masalalarning dolzarblashuvi, mamlakat ichki va tashqi siyosatida yangi ustuvor yo'nalishlarni yaratish, madaniyatli sanoatning globallashuvi "postindustrial jamiyat", "axborotlashgan jamiyat", "intellektual jamiyat" singari yangi tushunchalarni shakllantirdi va zamonaviy sivilizatsiyaning postindustrial bosqichiga o'tishi tezlashdi.

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tezlashishi mavjud muammolarni milliy-mintaqaviy emas, balki global miqyosda hal qilish holatidir. Bu jarayonda birorta jamiyat o'z-o'zini izolyatsiya qila olmaydi. Globallashuv jarayoni jamiyatning ochiq tizim holatida bo'lishini xohlaydi hamda shuni ta'minlaydi.

texnikaviy inqilob ijtimoiy-madaniy globallashuv omili sifatida fanni ijtimoiy hayotning barcha sohalari rivojlanishining asosiy omiliga aylantiradi. Shu bilan birga, bugungi kunda zamonaviy fan dunyo aholisining farovon hayot kechirishi uchun iste'mol va ishlab chiqarishni tubdan oshirishga xizmat qilmoqda, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Shu boisdan ham global ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning muhim omili sifatida fan va texnika rolining tez o'sishi nafaqat mehnat hamda bo'sh vaqt mazmunining o'zgarishiga, balki ma'naviy hayotda ham muhim o'zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun ham S.Otamurodov: "....globallashuv, bir tomondan, insoniyat intellektual salohiyati taraqqiyotining yangi bosqichi bo'lishi bilan ijobiy jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan va kam taraqqiy qilgan millatlarning yuksak taraqqiyotga erishgan millatlarga bog'lanib qolishga olib keladigan salbiy jarayondir"— deb ta'kidlaydi. Ilmiy-texnika inqilobi insoniyatni ilm-fanning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanishiga keng shart-sharoit yaratib beradi. Internet, sun'iy yo'ldosh televideniya'sini o'z ichiga olgan global miqyosda aloqa vositalarini yaratish hamda tarqatish orqali ilmiy va texnologik inqilob sayyorani global o'yinlar maydoniga aylantiradi. Ikkinchidan, "ommaviy madaniyat"ni universallashtirish orqali ijtimoiy-madaniy jarayonlarning globallashuvi tobora oshib bormoqda. Shu boisdan ham ijtimoiy-madaniy jarayonlarning asosiy jabhalarini o'z ichiga qamrab oladigan va insoniyat hayotining barcha jabhalariga kirib bora oladigan ommaviy madaniyat unsurlari, uning madaniy kodlari yordamida texnologiyalar ijtimoiy hayot talablarini soddalashtiradi, birlashtiradi hamda virtuallashuviga keng imkoniyat yaratadi. Shubhasiz, ommaviy madaniyatning yoshlar faoliyatida keng miqyosda namoyon bo'lishi jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi turli darajadagi muammoli holatlarni namoyon etmoqda. Insoniyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan baynalmilallashuvi sharoitida globallashuv xalqaro munosabatlarning barcha subyektlariga transformatsion ta'sirini kuchaytirib beruvchi katalizator vazifasini o'tab kelmoqda.

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tezlashishi mavjud muammolarni milliy-mintaqaviy emas, balki global miqyosda hal qilish holatidir. Bu jarayonda birorta jamiyat o'z-o'zini izolyatsiya qila olmaydi. Globallashuv jarayoni jamiyatning ochiq tizim holatida bo'lishini xohlaydi hamda shuni ta'minlaydi. Globallashuv jarayonlari bir vaqtning o'zida ijtimoiy-madaniy muhitda yutuqlarga (*birgalikda tinch-totuv yashash falsafasiga asoslanadigan makon*) va bir qator muammolar (*jamiyatda ijtimoiy muvozanatning bo'lishi, tizim bifurkatsiyaga uchrashi, ana'naviylik va madaniy innovatsiyalarning ustuvorligi*)ga uchraydi. Buni tizimlarda katta va kichik buzilishlar deb atash mumkin. Bu borada

U. Astafiyevaning yozishicha, madaniyat rivojlanishi “harakatning maxsus mantig‘ini o‘z ichiga qamrab oladi, bunda tizim o‘zining muhim xususiyatlarini yo‘qotmaydi”.

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlar xalqlar va madaniyatlar integratsiyasini ta‘minlashi kerak bo‘lsa, global boshqaruv usuli qo‘llanishi bilan insoniyat tarixida yangi ma‘naviy paradigmasiga asos solmoqda. Endilikda global madaniy qadriyatlar zamoni va boshqaruv shakllari hukmron bo‘lgan davr keladi. Milliy-madaniy tuzilish sivilizatsiyalarning asosi sifatida global sivilizatsiyalarga singib boradi.

Keyingi paytda an‘anaviy madaniyatlarning global ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan ziddiyati kuzatilib, an‘anaga nisbatan zo‘ravonlik holatlari uchramoqda. Global makonda bunday tajovuzkorlik ham virtual, ham real voqelikda amalga oshirilmoqda. Shu ma‘noda xalqlar, millatlar va madaniyatlarning o‘ziga xosligi, o‘ziga mos ijtimoiy amaliyot qo‘llashga qaratilgan faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki “milliy-madaniy mentalitet va badiiy-estetik faoliyat o‘z mohiyatini saqlab qoladi, madaniy o‘ziga xoslikni namoyon qilish uchun qolgan kanallar, ular orqali milliy o‘zlikni anglash jarayonini amalga oshirib, tashqi dunyoga munosabat bildiradi”. Shubhasiz, aynan madaniy shakllar va amaliyotlarning xilma-xilligini ta‘minlash ijtimoiy-madaniy rivojlanish parametrlarini belgilaydi. Zamonaviy nuqtayi nazardan biri shundaki, ziddiyatli vaziyatni hal qilish uchun uning ko‘zgu versiyasi – “qarama-qarshi politsentrizm”dan farqli o‘laroq, mamlakatlar, xalqlar va madaniyatlarning ko‘p qutbli birlashmasi g‘oyasini amalga oshirish zarur. Bu jarayonda insoniyat manfaatlar koordinatsiyasiga va ayni paytda mavjud bo‘lgan texnogen hamda an‘anaviy jamiyatlarning qadriyatlarini bir-biriga bog‘lashga tayanib birlashishi mumkin. Bu yerda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan madaniyatlararo muloqot g‘oyasi bo‘lib, u har ikki madaniyat uchun o‘zaro tushunish va tenglikni tan olishga intilishida yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik: *birinchidan*, G‘arb faylasuf olimlari tomonidan globallashuv hodisasi moliya-iqtisodiy hodisa sifatida talqin qilinib, bu kapitalning tez harakatlanishi, tovar va xizmatlar harakatining liberallashuvi, milliy iqtisodiyotlarning yagona global tizimga qo‘shilishi bilan bog‘liq dialektik jarayonni aks ettiradi. Biroq globallashuv faqat iqtisodiy hodisa bo‘lmay, u insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi, dunyoning yangi manzarasi shakllanishiga olib keladi, dunyoning yaxlitligini tushunishga katta yordam beradi; *ikkinchidan*, globallashuv murakkab ziddiyatli hodisa hisoblanadi. U, bir tomondan, turli xalqlar va davlatlar uchun chegaralarni ochadi, ularni bilim, axborot va texnologiyalar orqali bog‘laydi, ikkinchi tomondan esa G‘arb davlatlari, avvalambor, Amerika

Global ijtimoiy-madaniy jarayonlar xalqlar va madaniyatlar integratsiyasini ta‘minlashi kerak bo‘lsa, global boshqaruv usuli qo‘llanishi bilan insoniyat tarixida yangi ma‘naviy paradigmasiga asos solmoqda. Endilikda global madaniy qadriyatlar zamoni va boshqaruv shakllari hukmron bo‘lgan davr keladi. Milliy-madaniy tuzilish sivilizatsiyalarning asosi sifatida global sivilizatsiyalarga singib boradi.

gegemonizmining mondializm g'oyalari ta'siri ostida shakllangan g'arblashtirish sifatida ham qabul qilinadi; *uchinchidan*, globallashuv ikki o'zaro bog'liq jarayon sifatida qaralib, bu, birinchidan, turli millatlar, iqtisodiyotlar va madaniyatlarning bir-biri bilan aloqalar o'rnatish zarurati ta'siri ostida yuzaga keladigan tabiiy jarayon (*gorizontal globallashuv*), ikkinchidan, globallashuvning umumiy jarayoni vertikal globallashuvni (*sun'iy, uyushgan*) o'z ichiga oladi. Bu bir mamlakat, jamiyat yoki davlatning o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy rivojlanish modellarini boshqa davlat yoki mintaqalarga majburan kiritishga urinishlari natijasi sifatida ham qayd etiladi; *to'rtinchidan*, globallashuv nohiziqli, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning kontragentlari mavjud iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy tuzilishga ega bo'lgan ("Oltin milliard" dasturi) mavjud dunyo tartibini saqlab qolish uchun manfaatdor tomonlar yoki bu dunyo tartibini beqarorlashtirishga va dunyo tizimining ijtimoiy muvozanatini (antigloballashuv, rivojlanayotgan mamlakatlar) kiritib, yangi konfiguratsiyani yaratishga urinish bilan xarakterlanadi; *beshinchidan*, ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlik muammosi inson, oila, jamiyat, davlat muassasalarining tahdidlarga qarshi turish salohiyatini bildirib, zamonaviy dunyoda insoniyat va umuman, olam uchun eng muhim fenomenlardan biridir; *oltinchidan*, bugungi kunga kelib, dunyoda turli xalqlar, millatlarning birlashish g'oyasi xilma-xillikning universalligi g'oyasi bilan almashtirilmoqda. Zamonaviy gumanitar sohada xavfsizlik konsepsiyasini yaratishga bo'lgan harakat aynan shu zaruratdan kelib chiqadi. Zero, global ijtimoiy-madaniy jarayonlarda ma'naviyatni saqlash va xavfsizlik o'zbek xalqiga butun hayoti davomida rivojlanib kelgan asosiy ma'naviy-axloqiy prinsiplar, me'yorlar, an'analar, turmush tarzi, milliy o'ziga xoslik va madaniy o'ziga xoslikni himoya qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М., Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашири. – Тошкент: “Ўзбекистон” наشريёти, 2022. – 308 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 33 б.
3. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти.– Тошкент: Ўзбекистон, 2018, – 73 б.
4. Колосова О.Ю., Несмеянов Е.Е. Социокультурные трансформации в условиях глобализационных процессов // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-14. – С. 3201–3204.
5. Аствацатуров А.Е., Басилаиа М.А. Глобализация и начала космогармонии // Век глобализации. – 2009. –№ 2.